

**FIRMA NOMINING HUQUQIY MAQOMI VA UNING
AHAMIYATI**

Allayarova Maftuna Almardonovna

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: mazkur tezisdagi firma nomi tushunchasi, belgilari, uning yuridik tabiati va firma nomi institutini tartibga solish sohasidagi qonunchilikning evolyutsiyasi masalalari muhokama qilinib, firma nomining asosiy funksiyalari ham o'rganilgan.

Kalit so'zlar: firma nomi, tovar belgisi, mutlaq huquq, himoya qilish.

**ПРАВОВОЙ СТАТУС НАИМЕНОВАНИЯ КОМПАНИИ И ЕГО
ЗНАЧЕНИЕ**

Аллаярова Мафтуна Алмардоновна

Ташкентский государственный юридический университет, базовый докторант

Аннотация: в данной диссертации рассматриваются понятие фирменного наименования, его характеристики, правовая природа, а также эволюция законодательства, регулирующего институт фирменного наименования, а также рассматриваются основные функции фирменного наименования.

Ключевые слова: фирменное наименование, товарный знак, исключительное право, защита.

**LEGAL STATUS OF A COMPANY NAME AND ITS
SIGNIFICANCE**

Allayarova Maftuna Almardonovna

Basic doctoral student at Tashkent State University of Law

Abstract: *this thesis discusses the concept of a company name, its features, its legal nature and the evolution of legislation in the field of regulating the institution of a company name, and also studies the main functions of a company name.*

Keywords: *company name, trademark, exclusive right, protection.*

Hozirda O'zbekiston Respublikasida, jahon hamjamiyatining boshqa mamlakatlarida bo'lgani kabi, fundamental siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Intellektual mulk iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan va bir mamlakat iqtisodiyotining barqaror uzoq muddatli rivojlanishida resurs imkoniyatlarini oshiradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Jahon bozoriga chiqayotgan mahsulotlarimizda O'zbekiston ovozi jaranglashi kerak, brendi bo'lsagina mahsulotlarimiz tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallay oladi", — deya ta'kidlashi ham bejizga emas [1].

Firma nomi tijorat tashkilotini boshqa tijorat tashkilotlaridan farqlash vositasidir. Unga qo'yiladigan talablar, qoida tariqasida, yuridik shaxs nomiga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladi. Xususan, firma nomini tanlashda ushbu nom uning tashkiliy-huquqiy shaklini, mulkchilik shaklini, faoliyat sohasini o'z ichiga olishi kerakligini hisobga olish kerak. Ushbu rasmiy qismga qo'shimcha

ravishda, noyob va xayoliy nomdan foydalanish mumkin. Ko‘pincha, bu tijorat tashkilotiga boshqa tashkilotlardan ajralib turishga imkon beradi.

Intellektual mulk obyekti hisoblanadigan firma nomi yuridik shaxs bo‘lgan tijorat tashkilotining individual nomi bo‘lib, unga doir mutlaq huquq yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vaqtda yuzaga keladi.

“Jahon bozorida tovarlar, ishlar va xizmatlar bilan bir qatorda «to‘rtinchi savat»ni intellektual mulk huquqi tashkil etadi. Aynan intellektual mulk qo‘shimcha raqobatbardoshlikda, jumladan, innovatsion texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanish, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishda ustunlikni ta'minlaydi. Intellektual mulk Yevropada yalpi ichki mahsulotning 45 foizini, Xitoyda 12 foizni, Rossiyada 7 foizni tashkil etadi” [2].

Bugungi kunda “intellektual mulk bozorining o‘shish suratlari yiliga 10 foizdan yuqoridir, jumladan bu Xitoyda 23 foiz, AQSH va Rossiyada 5 foiz hamda Fransiyada 2 foizni tashkil etadi. Oxirgi o‘n yilda qariyb bir mlrd.dan ziyod patentlangan obyektlarning muomalaga chiqarilishi natijasida intellektual mulkni samarali boshqarish bo‘yicha raqamli platforma va xizmatlar joriy etildi” [3].

Ma’lumot uchun “Brand Finance” statistikasiga ko‘ra iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar kompaniyalarining umumiy aktivlari 89,0 trln. AQSH dollarni tashkil etib, undan 46,8 trln. AQSH dollar (52,5 foiz) moddiy ko‘rinishdagi aktivlar, 41,9 trln AQSH dollari (47,0 foiz) esa nomoddiy aktivlar hisoblanadi [4].

Bundan ko‘rinib turibdiki, barcha mamlakatlarda yaratilayotgan intellektual mulk obyektlari iqtisodiyotda ahamiyatli va o‘z navbatida firma nomlarining huquqiy maqomi, uning himoyasi davr talabiga aylanmoqda.

Firma nomi deganda tadbirkorlik subyektini fuqarolik muomalasida o'zini tanishtiruvchi, boshqa ishtirokchilardan farqlovchi nomi tushuniladi. Shu sababli ham firma nomi subyekt huquqiga mos bo'lgan holda korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini (AJ, ishlab chiqarish kooperativi), uning turini (davlat, jamoa, xususiy), faoliyat turini (ishlab chiqarish, savdo, ilmiy tadqiqot), korxona egasining shaxsini (misol uchun, Toyota, Ford) ifodalashi lozim [5].

Firma nomining iqtisodiy ahamiyati yaxshi tashkil etilgan tijorat tashkilotining kontragentlar orasida mashhurligi tufayli ega bo'lgan qiymatidadir. Ba'zi tijorat tashkilotlari butun Rossiya bo'ylab ma'lum bo'lishi mumkin, boshqalari – alohida mintaqada, ayrimlari – bitta shaharda va hokazo [6].

Firma nomi tadbirkorlik subyektining individuallashtirish vositalari, ya'ni tovar bozorida iste'molchilar uchun kurash jarayonida o'z tovarining sifatini kafolatlashda, reklama sohasida o'zini tanitishda alohida qilib ko'rsatish vositalari hisoblanadi.

Firma nomlariga nisbatan ham barchaga taalluqli bo'lgan talab – ya'ni qonun hujjatlari talablariga yoki ijtimoiy axloq normalariga zid bo'lgan nomlar (masalan, xorijiy tilga oidlik, o'zbek yoki rus tillarida talaffuz qilinganida uyatli eshitilishi) mumkin emas.

Firma nomiga nisbatan mutlaq huquqni tan olish deganda firma nomi egasining mutlaq huquqlari boshqa shaxslar tomonidan, sud, davlat organi va boshqa jamoat tashkilotlari tomonidan tan olinadi.

“Firma nomlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga ko'ra firma nomida quyidagilar ko'rsatilmaydi:

1) davlatning rasmiy nomi, xalqaro, hukumatlararo yoki nodavlat notijorat tashkilotining qisqartirilgan yoki to'liq nomi;

2) tarixiy yoki O'zbekiston Respublikasida mashhur bo'lgan shaxsning to'liq yoki qisqartirilgan ismi, belgilangan tartibda beriladigan ruxsatsiz;

3) firma nomining egasi, uning faoliyat turi yoki u kelib chiqqan mamlakat xususidagi soxta yoki iste'molchini chalg'itishi mumkin bo'lgan belgilar;

4) jamiyat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq prinsiplariga zid bo'lgan belgilar ko'rsatilmasligi kerak.

Shuningdek, ilgari O'zbekiston Respublikasida boshqa yuridik shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazilgan yoki ro'yxatdan o'tkazish so'rab talabnoma berilgan, ilgariroq ustuvorlikka ega bo'lgan firma nomlari;

ilgari O'zbekiston Respublikasida boshqa shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazilgan yoki ro'yxatdan o'tkazish so'rab talabnoma berilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilmay muhofaza qilinadigan tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);

belgilangan tartibda hammaga ma'lum deb e'tirof etilgan tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);

belgilangan tartibda qonunchilik bilan muhofaza qilinadigan geografik ko'rsatkichlar va tovar kelib chiqqan joyning nomlari bilan, shunday ko'rsatkichdan yoki nomdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazish hollari bundan mustasno, adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga o'xshash bo'lgan belgilar ham ko'rsatilmasligi kerak.

Shu o'rinda tovar belginini ham tushuntirib ketish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tovar belgisi – bu tovarlarni individuallashtirish uchun ishlatiladigan belgi. Bu hali tan olish yo'lini boshlagan va kompaniyaning mashhurligiga naf keltirmaydigan narsa. Tovar belgisi brendning yadrosidir, ammo brenddan farqli o'laroq, tovar belgisi qonun bilan himoyalangan va qonuniy kuchga ega. Tovar belgisi mahsulotni tanib olish va ommalashtirishga imkon beradigan belgi [7].

Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisiga ega bo'lgan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni belgilaydigan tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi tadbirkorlar va iste'molchilar o'rtasidagi zanjirning bo'g'ini deb atash mumkin.

Qonunchilikka ko'ra yuridik shaxs o'z firma nomidan foydalanishda va boshqa yuridik shaxslarga ushbu firma nomidan foydalanish huquqini berishda mutlaq huquqqa ega.

Firma nomiga bo'lgan mutlaq huquqni undan noqonuniy foydalanishdan himoya qilish:

- yuridik shaxsning ishchanlik obro'sini himoya qilish maqsadida sud qarori to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish;
- noqonuniy foydalanilgan firma nomini kontrafakt tovarlar, yorliqlar, idishlar va o'rovlardan huquqbuzar hisobidan olib tashlash;
- noqonuniy foydalanilgan firma nomini kontrafakt tovarlar, yorliqlar, idishlar va o'rovlardan olib tashlash mumkin bo'lmagan taqdirda, ularni huquqbuzar hisobidan yo'q qilib tashlash;
- zararlarning o'rnini qoplash;

- zararlarning qoplanishi o'rniga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravarigacha miqdorda tovon to'lash;
- kontrafakt tovarlar, yorliqlar, idishlar va o'rovlarni firma nomiga bo'lgan huquqqa egalik qiluvchi yuridik shaxsga berish orqali amalga oshiriladi [8].

Boshqa individuallashtirish vositalaridan farqli ravishda firma nomiga bo'lgan huquq uchun huquqiy muhofaza hujjatining amal qilishi muddat bilan belgilanmaydi.

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra firma nomlariga nisbatan mutlaq huquq yuridik shaxs vakolatli davlat organida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin vujudga keladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, tovar ishlab chiqaruvchilarning raqobati sharoitida firma nomiga bo'lgan huquqni himoya qilish tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida juda muhimdir. Zero, intellektual mulk obyektlari iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega va o'zining salmoqli o'rniga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident intellektual mulk muhofazasi bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.
<https://www.gazeta.uz/oz/2020/10/12/intellectual-property/>.
2. Интеллектуал мулк объекtlарини муҳофаза қилиш масалалари муҳокама қилинди. <https://president.uz/uz/lists/view/3887>.

3. <http://rg.ru/2018/10/21/kak-upravliat-intellektualnoj-sobstvennostiu-v-usloviiah-cifrovoj-ekonomiki>.
4. Brand Finance Nation Brands 2017.<http://brandfinance.com/who-we-are/our-story/>.
5. O. Oqyulov. Intellektual mulk huquqiy maqomning nazariy va amaliy muammolari. –T.: TDYU. 2004. 149-b.
6. Венедиктов Ю.С. К вопросу о юридической природе фирменных наименований // Известия РГПУ им. А.И. Герцена. – 2011. - № 127. – С. 160.
7. Карцхия А.А. Права интеллектуальной собственности и концепция общественного достояния // Мониторинг правоприменения. – 2013. - № 3. – С.8.
8. “Firma nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni.
<https://lex.uz/docs/-1055517>.